



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisining birinchi
o‘rinbosari v.b.:
Sh.Yusupov

«2» iyun 2026 y.
№ 396

TEXNIK TOPSHIRIQ

ATB «Biznesni rivojlantirish banki»ni «Taraqqiyot instituti»ga transformatsiya qilish orqali kichik biznesni tizimli qo‘llab-quvvatlash Konsepsiyasini shakllantirish loyihasi bo‘yicha

Toshkent, 2026-y.

1. Loyihaning to'liq nomi va shartli belgisi:

1.1 ATB «Biznesni rivojlantirish banki»ni (keyingi o'rinlarda – Bank) «Taraqqiyot instituti»ga transformatsiya qilish orqali kichik biznesni tizimli qo'llab-quvvatlash Konsepsiyasini (keyingi o'rinlarda – Konsepsiya) shakllantirish loyihasi.

1.2 Buyurtmachi:

Aksiyadorlik tijorat banki «Biznesni rivojlantirish banki».

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100011, Toshkent sh., A. Navoiy ko'chasi, 18a.

Telefon: (78) 150-00-55

MFO: 01037

h/r: 1990 9000 6000 0103 7001

STIR: 206 916 313

SWIFT kodi: NBFAUZ2X

Elektron pochta: headoffice@brb.uz

Rasmiy veb-sayt: www.brb.uz

1.3 Ijrochi:

Mazkur loyiha bo'yicha «Ijrochi» eng yaxshi takliflarni tanlash natijalari asosida aniqlanadi.

1.4 Ishlarni bajarish muddatlari:

Loyihani amalga oshirish muddati: 4 haftagacha. Konsepsiyaning dastlabki varianti 2026-yil 1-iyungacha taqdim etilishi, loyiha doirasidagi ishlar esa 2026-yil iyul oyidan kechiktirmay yakunlanishi lozim.

1.5 Xizmatlar ko'rsatiladigan joy:

O'zbekiston Respublikasi, 100011, Toshkent sh., A. Navoiy ko'chasi, 18a.

Bank Bosh ofisi binosi yoki Ijrochi tomonidan Buyurtmachi bilan kelishilgan holda taklif etilgan boshqa joy.

1.6 Bank haqida umumiy ma'lumotlar:

ATB «Biznesni rivojlantirish banki» moliyaviy xizmatlar bozorining yirik ishtirokchilaridan biri bo'lib, bank mahsulotlari va xizmatlarining asosiy turlarini amalga oshiradi. Bank tarmog'i har bir hududda joylashgan bo'lib, 36 ta Bank xizmatlari ofisi (BXO/filiallar) va 24 ta Bank xizmatlari markazini (BXM) o'z ichiga oladi.

Bank yuridik va jismoniy shaxslarning barcha segmentlarini qamrab olgan keng turdagi xizmatlarni taqdim etadi, bunda kichik va o'rta biznes (KOB) segmentiga alohida e'tibor qaratadi. Bankning asosiy maqsadlaridan biri kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali mamlakat iqtisodiy o'sishiga hissa qo'sishidir.

Bank faoliyati ikki asosiy yoʻnalishni qamrab oladi:

- tijorat yoʻnalishi (oʻzini oʻzi moliyalashtirish va rivojlanishni taʼminlash);
- notijorat yoʻnalishi (ijtimoiy sohalardagi davlat dasturlari doirasida ustuvor vazifalarni amalga oshirish).

1.7 Ishlarni bajarish uchun asoslar tarkibi:

- Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi OʻRQ-684-son «Davlat xaridlari toʻgʻrisida»gi Qonuni.
- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son «Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bogʻliq tartib-taomillarni tashkil etish va oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori.
- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son «Davlat xaridlari tizimida raqobat muhitini va shaffoflikni taʼminlash boʻyicha navbatdagi chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi Farmoni.
- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarori.
- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti davomida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi qarori.
- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-son «Kichik biznesni uzluksiz qoʻllab-quvvatlash» kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarori.

1.8 Bank litsenziyasi:

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 30.09.2023-yilda berilgan bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi 93-son litsenziya.

1.9 Toʻlov shartlari

Shartnoma boʻyicha toʻlov 2 bosqichda amalga oshiriladi:

- Oldindan toʻlov (avans): shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 10 ish kuni ichida shartnoma summasining 35 foizi miqdorida oldindan toʻlov amalga oshiriladi.
- Yakuniy hisob-kitob: shartnoma boʻyicha bajarilgan ishlar va koʻrsatilgan xizmatlar dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 10 ish kuni ichida shartnoma summasining 65 foizi toʻlanadi.

2. Loyihani amalga oshirish vazifalari va maqsadlari

2.1 Loyihaning asosiy maqsadi va vazifalari:

Loyiha asosi

Joriy bosqich doirasida Bank tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash va davlat siyosati vazifalarini amalga oshirishga yoʻnaltirilgan holda oʻz roli va faoliyat modelini taraqqiyot instituti sifatida transformatsiya qilishni koʻrib chiqmoqda.

Bankda dastlabki qarashlar va ishlab chiqilgan yondashuvlar mavjudligini inobatga olgan holda, ularni xalqaro tajriba va milliy moliya tizimi xususiyatlarini hisobga

olgan holda Bankni Taraqqiyot institutiga transformatsiya qilishning yagona konsepsiyasi ko‘rinishida tizimlashtirish, takomillashtirish va rasmiylashtirish talab etiladi.

Loyiha maqsadi

Davlat siyosati vazifalari va xalqaro amaliyotlarni hisobga olgan holda Biznesni rivojlantirish bankini Taraqqiyot institutiga transformatsiya qilish bo‘yicha konseptual qarashni tayyorlash va rasmiylashtirish, jumladan:

- taraqqiyot institutining maqsadli mandati va rolini belgilash;
- faoliyat yuritish va institutsional modelning umumiy tamoyillarini shakllantirish;
- davlat, ikkinchi darajali banklar va xalqaro moliya institutlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish bo‘yicha yuqori darajadagi yondashuvlarni belgilash;
- qo‘llab-quvvatlash va risklarni taqsimlash mexanizmlariga nisbatan yuqori darajadagi yondashuvlarni shakllantirish;
- transformatsiyani amalga oshirish mantiqi va bosqichliligi bo‘yicha dastlabki qarashni shakllantirish.

3. Xizmatlar ro‘yxati va hajmi

3.1. Transformatsiya bo‘yicha joriy qarashni tahlil qilish va tizimlashtirish

- ⊙ Bankning taraqqiyot institutiga transformatsiya qilinishi bo‘yicha mavjud materiallari, yondashuvlari va qarashlarini tahlil qilish;
- ⊙ Transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlarini tizimlashtirish va rasmiylashtirish;
- ⊙ Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimida Bankning joriy rolini tahlil qilish;
- ⊙ Bankni taraqqiyot institutiga transformatsiya qilishning asosiy shart-sharoitlarini shakllantirish.

3.2. Xalqaro benchmarking va eng yaxshi amaliyotlarni tahlil qilish

Taraqqiyot institutlarining xalqaro tajribasini o‘rganish, jumladan:

- ⊙ KfW;
- ⊙ Business Development Bank of Canada;
- ⊙ British Business Bank;
- ⊙ va boshqa tegishli xalqaro amaliyotlar (qo‘shimcha ravishda 2 tagacha – Koreya va Qozog‘iston).

Benchmarking doirasida quyidagilarni tahlil qilish nazarda tutiladi:

- ⌚ institutsional modellar va mandatlarini;
- ⌚ risk-sharing mexanizmlari va kafolat instrumentlarini;
- ⌚ blended / aralash moliyalashtirishni;
- ⌚ tijorat banklari orqali on-lending modellarini;
- ⌚ moliyalashtirish va resurslarni jalb qilish yondashuvlarini;
- ⌚ KOBni nomoliyaviy qo‘llab-quvvatlash yondashuvlarini.

3.3. Taraqqiyot instituti bo‘yicha konseptual qarashni shakllantirish

Quyidagilarni shakllantirish:

- ⌚ taraqqiyot institutining maqsadli mandati va roli bo‘yicha qarashni;
- ⌚ institutsional modelning umumiy tamoyillarini;
- ⌚ davlat, ikkinchi darajali banklar va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilish bo‘yicha yuqori darajadagi yondashuvlarini;
- ⌚ risk-sharing mexanizmlari va kafolatli qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yuqori darajadagi yondashuvlarini;
- ⌚ moliyalashtirish va resurslarni jalb qilish yondashuvlarini;
- ⌚ hududiy infratuzilmadan foydalanish yondashuvlarini;
- ⌚ KOBni nomoliyaviy qo‘llab-quvvatlash yondashuvlarini;
- ⌚ taraqqiyot instituti faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari tizimiga nisbatan yondashuvlarini.

3.4. Transformatsiyani amalga oshirish bo‘yicha dastlabki qarashni shakllantirish

- ⌚ Transformatsiyaning asosiy tamoyillari va mantiqini belgilash;
- ⌚ Amalga oshirish bosqichliligi bo‘yicha dastlabki qarashni shakllantirish;
- ⌚ Asosiy tashkiliy va regulyator o‘zgarishlarni belgilash;
- ⌚ Muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy risklari va omillarini belgilash.

Loyiha cheklovlari va farazlari

Loyiha doirasida Bankni Taraqqiyot institutiga transformatsiya qilish bo‘yicha ekspert konseptual qarashini tayyorlash nazarda tutiladi.

Loyiha quyidagilarni nazarda tutmaydi:

- ⊙ detallashtirilgan moliyaviy modelni ishlab chiqishni;
- ⊙ transformatsiyaning moliyaviy-iqtisodiy samaralarini hisoblashni;
- ⊙ batafsil business plan ishlab chiqishni;
- ⊙ batafsil maqsadli operatsion modelni ishlab chiqishni;
- ⊙ detallashtirilgan ichki jarayonlar, tartib-taomillar va reglamentlarni ishlab chiqishni;
- ⊙ normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashni;
- ⊙ o'zgarishlarni joriy etish va transformatsiyani amalga oshirishni kuzatib borishni.

Loyiha doirasidagi barcha xulosalar va tavsiyalar konseptual hamda yuqori darajada shakllantiriladi va regulyator hamda davlat organlarini o'z ichiga olgan stakeholders bilan keyingi muhokama uchun mo'ljallangan.

Loyiha doirasidagi yakuniy taqdimot materiali rus tilida 30 slayddan oshmagan hajmda tayyorlanadi.

Loyihani amalga oshirish muddati stakeholders tomonidan ma'lumotlar va fikr-mulohazalar o'z vaqtida taqdim etilishi sharti bilan loyiha boshlangan sanadan boshlab 6 haftadan oshmaydi.

Loyiha doirasida Bank, regulyator va boshqa manfaatdor tomonlarning izohlari bo'yicha materiallarni ko'pi bilan 3 (uch) marta qayta ishlash nazarda tutiladi.

Mazkur Texnik topshiriq doirasidan tashqariga chiqadigan qo'shimcha ish hajmini bajarish zarurati tug'ilganda, qo'shimcha xizmatlar ro'yxati va ularni ko'rsatish shartlari tomonlar tomonidan qo'shimcha kelishuv doirasida alohida kelishiladi.

4. Ishlar Ijrochisiga qo'yiladigan talablar va shartlar

Potensial ijrochi «Ijrochi» moliya sektorini diagnostika qilish va strategiyalar/konsepsiyalarni shakllantirish masalalari bo'yicha banklarga professional maslahat berish bo'yicha institutsional tajribaga ega yuridik shaxs bo'lishi lozim.

4.1 Potensial ijrochi «Ijrochi» quyidagi tarkibiy qismlardan iborat texnik taklifni taqdim etishi lozim:

- Metodologiyaning batafsil matnli tavsifi (amalga oshirish rejasi, tadbirlar, amalga oshirish hajmi va bosqichlari, zarur mutaxassislar soni, ularning malakasi,

shuningdek ishni o‘z vaqtida va sifatli bajarish uchun zarur bo‘lgan qiymat va ish soatlari, kutilayotgan natijalar bilan birga);

- Kompaniya tomonidan so‘nggi 5 yil ichida amalga oshirilgan transformatsion loyihalar, shu jumladan tavsiyanomalar va mijozlar fikrlari bo‘yicha batafsil ma‘lumot;

- Asosiy ekspert-maslahatchilar, shu jumladan ularning bunday turdagi ishlarni bajarish tajribasi to‘g‘risidagi ma‘lumot.

4.2 Ko‘rsatiladigan xizmatlarning yuqori sifatini ta‘minlash maqsadida potensial ijrochi «Ijrochi»ga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- Banklar uchun strategiyalar va/yoki transformatsion loyihalarni shakllantirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish tajribasi mavjudligi, jumladan:

- So‘nggi 5 yil ichida Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlarida kamida 3 ta bank (shu jumladan davlat ishtirokidagi banklar) uchun transformatsiya konsepsiyasi / rivojlanish strategiyasi / operatsion modelni shakllantirish yoki amalga oshirish tajribasi bo‘lishi lozim;

- So‘nggi 5 yil ichida O‘zbekiston Respublikasida transformatsiya loyihalarida ishtirok etish tajribasi mavjudligi.

4.3 Tegishli tajribani tasdiqlash uchun potensial ijrochi «Ijrochi» mazkur texnik topshiriq predmetiga o‘xshash xizmatlar ko‘rsatilgan tashkilotlar bilan tuzilgan xizmatlar ko‘rsatish dalolatnomalari nusxalari va/yoki shartnomalar nusxalarini taqdim etishi lozim.

4.4 Loyiha jamoasi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlarida strategik konsalting, banklar transformatsiyasi va moliya institutlarining strategik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash sohasida 5 yildan 10 yilgacha ish tajribasiga ega kamida 1 nafar Partner/Lider (Partner/Leader) mavjudligi;

- Strategik konsalting, risklarni boshqarish (risk-menejment), audit, moliya sektori sohasida kamida 8 yillik ish tajribasiga ega, shu jumladan banklar va moliya institutlarini transformatsiya qilish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqish va loyihalarni amalga oshirish tajribasiga ega loyiha rahbari mavjudligi;

- Loyiha jamoasining asosiy a‘zolarida O‘zbekiston Respublikasida banklarni transformatsiya qilish bo‘yicha kamida 3 ta loyihada, jumladan strategiyalar ishlab chiqish, biznes va operatsion modellarni transformatsiya qilish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va banklarni xususiylashtirishga tayyorlashda ishtirok etganligi bo‘yicha tasdiqlangan tajriba mavjudligi;

- Xalqaro moliya institutlari ishtirokida davlat bankini transformatsiya qilish tajribasi, jumladan transformatsiya va institutsional o‘zgarishlarning kompleks yo‘l xaritalarini tayyorlash tajribasi mavjudligi;

- Taraqqiyotni moliyalashtirish (development finance), banklar transformatsiyasi va institutsional islohotlar (institutional reform) yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro tarmoq ekspertlari hamda tor ixtisoslashgan mutaxassislarni (subject matter experts — SME) tezkor jalb qilish imkoniyati mavjudligi;

Malakani tasdiqlash uchun quyidagi hujjatlarni ilova qilish zarur:

- Loyiha ishtirokchilari bo'lgan barcha mutaxassislarning rezyumelari potensial ijrochi «Ijrochi»ning birinchi rahbari yoki vakolatli shaxsi tomonidan imzolangan bo'lishi lozim.

4.5 Ishlarni bajarish davomida Ijrochi texnik taklifda ko'rsatilgan ekspertlarni Buyurtmachining roziligisiz almashtirish huquqiga ega emas.

Bank potensial nomzodlar bilan individual yoki guruhli intervyular o'tkazish huquqini o'zida saqlab qoladi.

4.6 Xizmatlar ko'rsatish formatiga qo'yiladigan talablar

- «Ijrochi» kelishilgan ishlar rejasi doirasida Buyurtmachi vakillari, davlat organlari, tijorat banklari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan intervyular hamda ishchi uchrashuvlar o'tkazadi. Loyiha doirasida Buyurtmachi va tashqi manfaatdor tomonlar bilan 3 tagacha qo'shma ishchi uchrashuvlar nazarda tutiladi. Tashqi manfaatdor tomonlar, shu jumladan davlat organlari va tijorat banklari ishtirokini tashkil etish Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi. Qo'shimcha intervyular va uchrashuvlar o'tkazish faqat muddatlar va ish hajmiga ta'sirini hisobga olgan holda Tomonlarning alohida yozma kelishuvi asosida mumkin.

- Buyurtmachi rahbariyati ishtirokida ishchi sessiyalarni o'tkazish;

- Rus tilida taqdimot materiallari, tahliliy hujjatlar va konseptual materiallarni tayyorlash;

- Buyurtmachi bilan muhokama qilish va kelishish uchun oraliq materiallar hamda yakuniy natijalar (deliverables) loyihalarini (draft) shakllantirish;

- «Ijrochi» jamoasining asosiy a'zolarining muhim uchrashuvlar, strategik sessiyalar va loyiha natijalari taqdimotlarida bevosita (oflayn) ishtiroki;

- «Ijrochi» tomonidan xizmatlar gibrid formatda (onlayn va bevosita Buyurtmachi hududida) ko'rsatilishi mumkin. Bunda Buyurtmachi so'roviga ko'ra «Ijrochi» jamoasining asosiy a'zolari muhim muhokamalarda ishtirok etishlari shart;

- Yakuniy hujjatlar Konsepsiya muhokamasi doirasida Buyurtmachi va manfaatdor tomonlar tomonidan ko'rib chiqilishi uchun faqat konseptual xarakterdagi maslahat va tahliliy materiallar sifatida tayyorlanadi. Konsepsiyani tasdiqlash, o'zgartirish, qo'llash yoki amalga oshirish bilan bog'liq barcha qarorlar Buyurtmachi tomonidan mustaqil qabul qilinadi va «Ijrochi»ning javobgarligi doirasiga kirmaydi.

- Qabul qilish dalolatnomasi imzolangandan so'ng «Ijrochi»ning xizmatlar ko'rsatish bo'yicha majburiyatlari to'liq hajmda bajarilgan deb hisoblanadi. Yangi materiallarni tayyorlash, qo'shimcha hisob-kitoblarni amalga oshirish, ko'rsatkichlarni yangilash, joriy etishni kuzatib borish, keyingi muhokamalar, taqdimotlar, ishchi uchrashuvlarda ishtirok etish, shuningdek loyiha yakunlangandan keyin maslahatlar yoki tushuntirishlar berish xizmatlar hajmiga kirmaydi va faqat amaldagi mustaqillik talablarini hisobga olgan holda Tomonlarning alohida yozma kelishuvi asosida amalga oshirilishi mumkin.

4.7 Xizmatlar natijalarini topshirish va qabul qilish tartibi

4.7.1 Kutilayotgan natija:

«Ijrochi» tegishli material formatidan kelib chiqib, hisobot va taqdimot materiallarining yakuniy versiyalarini rus tilida elektron shaklda pdf, pptx formatlarida taqdim etadi. Konsepsiyaning qisqa versiyasi rus tilida taqdim etiladi.

4.7.2 Natijalarni rasmiylashtirish va Buyurtmachiga topshirish:

Barcha ishlar yakunlangandan soʻng «Ijrochi» bajarilgan ishlar natijalarini aks ettiruvchi hujjatlarni taqdim etadi. Mazkur hujjatlar Bank Boshqaruvi tomonidan baholanadi.

Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kun ishlarni qabul qilish sanasi hisoblanadi.

«Ijrochi» «Buyurtmachi»ga xizmatlar natijalarini Texnik topshiriqning 3-boʻlimi «Xizmatlar roʻyxati va hajmi»da koʻrsatilgan bosqichlar va tavsifga muvofiq hujjatlar koʻrinishida taqdim etadi.

Xizmatlar koʻrsatish jarayonida yaratilgan barcha intellektual mulk obyektlariga mualliflik huquqlari (mutlaq huquqlar) «Buyurtmachi»ga oʻtadi.

Barcha hisobot materiallari elektron shaklda (pdf, pptx formatlarida) rus tilida taqdim etilishi lozim.

5. Sifat kafolati

5.1 Xizmatlar sifati kafolatiga qoʻyiladigan talablar:

Ijrochi quyidagilarni kafolatlaydi:

- mazkur Texnik topshiriqda koʻrsatilgan barcha talablarga rioya etish;
- xizmatlar koʻrsatish yakunlangandan soʻng Buyurtmachiga xizmatlar bilan bogʻliq barcha hujjatlarning toʻliq paketini topshirish. Ushbu paket analitik maʼlumotlar, statistika, marketing va boshqa tadqiqotlar, shuningdek xizmatlar koʻrsatish jarayonida yaratilgan intellektual mulk obyektlariga boʻlgan huquqlar va Texnik topshiriqda nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni oʻz ichiga oladi;
- Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan barcha maʼlumotlar, shuningdek xizmatlar koʻrsatish jarayonida yaratilgan yoki foydalanilgan materiallar (analitik maʼlumotlar, rejalar, grafiklar, jadvallar va boshqalar) maxfiylikini taʼminlash. Maxfiylik oshkor qilmaslik toʻgʻrisidagi kelishuvda (NDA) belgilangan muddat davomida saqlanishi lozim;

5.2 Xizmatlar natijalari sifat kafolatining amal qilish muddati:

- 5.1-bandda keltirilgan kafolatlar xizmatlar koʻrsatishning butun davri davomida taʼminlanishi va amal qilishi lozim. Bundan tashqari, ular tomonlar oʻrtasida belgilangan maxfiylik kelishuvi va shartnoma majburiyatlariga toʻliq muvofiq boʻlishi kerak.

kelishuvchilar: B.Rakhmatov, A.Palvanov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=mQ16dF15&id=091e08fd-c7c7-4728-931e-3a6f32b2f9cd>